QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo‘l ko‘chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2024 - yil 4 - iyul 206-4-62-Q/24 Kitob tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda 2024-yilda davlat o‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i hududlarida yong‘in kelib chiqishi, tabiatga, o‘simlik dunyosiga zarar yetishining oldini olish maqsadida Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi direktorining 2024-yil 22-apreldagi 130-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi direktorining 2024-yil 22-apreldagi 130-sonli xati inobatga olinsin.

2. 2024-yilning yoz, kuz fasllarida Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari, geologiya Milliy tabiat bog‘i, qo‘shni fermer xo‘jaliklari hududida tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish, gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

3. Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari, geologiya Milliy tabiat bog‘i hududida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulodda holatlarda

yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari (SH.Adilov, J.Xoliqov), geologiya Milliy tabiat bog‘i (N.Abdiyev), Obikanda, Ko‘hsor, Qaynar, Bashir, Makrid mahallalari (R.Normurodov, S.Norimov, Sh.Murodov, T.Murodov, U.Jurayev) yong‘in xavfining oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ul etib belgilansin.

Ularga:

tuman IIB YOXB (A.Boltayev), tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i v.v.b. (A.Hasanov), “O‘ztelekom” AK Kitob tumani filiali (SH.Tursunov) bilan birgalikda davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda zudlik bilan odamlarni yong‘inni o‘chirishga jalb qilish, asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish;

tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (S.Boynazarov) bilan birgalikda mazkur hududlar yaqinida yashayotgan aholi o‘rtasida o‘rmon xo‘jaliklari va Milliy tabiat bog‘i hududida yong‘inning oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

“O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjat rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Kitob tumani hokimining 2023-yil 17-maydagi 178-4-62-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari T.Nasimov, tuman hokimi o‘rinbosari F.Usmonovlar zimmalariga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kitob tumani hokimi **G‘AFUROV RUSTAM.ABDIRASULOVICH**

Kitob tuman hokimining
2024-yil 4-iyuldagi
206-4-62-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Китоб давлат ўрмон хўжалигининг ўрмон фонди ер майдонларида ўрмон ёнғинларини олдини олиш, ҳамда бўлим ва участкалар иш фаолиятини назорат қилиш бўйича тузилган ишчи гуруҳи таркиби:

С.Бурхонов -Директор ўринбосари бош ўрмонбеги,

Ишчи гуруҳ раҳбари

1-гуруҳ

Ф.Ҳайдаров -Ўрмон инспектори

И.Зойидов -Ўрмонни сақлаш ва химоя қилиш мухандиси

Э.Шодиёров -Меҳнат мухофазаси ва техника хавфсизлиги мухандиси

И.Қаландаров - Агроном

2-гуруҳ

Ф.Мухаммадиев -Чегара тартиб ва кадрлар ишлари бўйича

директор ўринбосари

З.Хуррамов -Бош ҳисобчи

Ш.Остонов -Иқтисодчи

А.Қаюмов -ўрмон кадастр мутахассиси

Барча бўлим ва участка ўрмон бегилари, ўрмон усталари ҳамда ўрмончилари ўз худудлари бўйича масъулдирлар.

Kitob tuman hokimining
2024-yil 4-iyuldagi
206-4-62-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024 йилда Китоб давлат ўрмон хўжалигининг Деновболо, Қавзихона, Матмон, Сиёб, Мингчинор,Хазрати Башир, Макрид ўрмон бўлимлари, Жовуз давлат ўрмон хўжалигининг Матмон, Жовуз ўрмон бўлимлари, Геологик Қуриқхонада фавқулодда ҳолатларда ёнғинни ўчириш

Р Е Ж А С И

Т/р	Китоб тумани	Жойлашган аҳоли		Ёнғинга қарши ўчириш асбоблари			Ўрмон бўлимларининг номи	Техника-лар сони	Шундан сув ташиш машинаси
		Жами	Шундан ёнғин ўчиришга қатнашади	Болта	Арра	Белкурак			
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**
1	Тагоб МФЙ	8543	600	150	150	300	Сиёб	1	1
2	Кухсор МФЙ	4170	400	100	110	190	Деновболо Қавзихона Матмон Матмон Жовуз	7	1
3	Қайнар МФЙ	5168	450	150	120	180	Мингчинор	2	1
4	Башир МФЙ	5443	475	160	125	190	Хазрати Башир	2	1
5	Макрид МФЙ	12774	1200	300	400	500	Макрид	1	1

Керакли нарсалар юбориладиган жойлар	Тиббий ёрдам кўрсатилишини ташкил этишда жавобгар шахс	Ёнғин бўладиган жойларда алоқани тиклаш бўйича жавобгар шахс	Ўрмон бўлими бошлиқларининг И.Ф.О	Ёнғинни ўчириш бўйича жавобгар шахс	Техника ва ёнғин ўчириш асбоб-ускуналарини олиш жойи
11	12	13	14	15	16
Фуқаролар йиғинлари, Фермер хўжаликлари	Туман Тиббиёт бирлашмаси (О.)	“Ўзтелеком” АК Китоб туман филиал ()	М.Мухторов, А.Холиқов, С.Сабуров, М.Рахматов, У,Сафаров Ш.Давронов, И.Сафаров А.Турдиев, Р.Буриев	Ўрмон инспектори Ф,Ҳайдаров Ўрмон инспектори М.Турдиев	Ўрмон хўжалиги, Маҳалла ва қишлоқ фуқаролар йиғинлари, ҳамда фермер хўжаликлари омборлари

Kitob tuman hokimining
2024-yil 4-iyuldagi
206-4-62-Q/24-son qaroriga
3-ilova

NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHASINING
LINGVISTIK EKSPERTIZA
XULOSASI

3-son

1.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining turi: qaror

2.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining nomi: Davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

3.Lingvistik ekspertizani o‘tkazuvchi: Kitob tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi L. O‘roqova

4. Lingvistik ekspertiza o‘tkazilgan sana: 2024-yil 31-may

5.Normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, tegishli tuzatishlar kiritish, matnni qisqartirish, qayta ishlash, ism-shariflar va tashkilotlar nomi bilan bog‘liq xatolar bo‘yicha aniq tavsiyalar ko‘rsatiladi.

Qaror loyihasidagi uslubiy, imloviy, tinish belgilariga oid va boshqa xatolarni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

BERILGAN TAVSIYALAR

T/r	Loyiha matnida	Tavsiyada
1.	2024 yilda Davlat o‘rmon fondi va Qo‘riqxona yerlarida yong‘in kelib chiqishining oldini olish, tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida, Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligining 2024 yil -maydagi -sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonun (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 122-modda), Muhofaza etiladigan tabiiy xududlar to‘g‘risidagi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 22 noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami, 1999 y., 11-son, 68-modda)ga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993y, 9-son, 320-modda)ning 6-moddasiga asoslanib	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda 2024-yilda davlat o‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i hududida yong‘in kelib chiqishi, tabiatga, o‘simlik dunyosiga zarar yetishining oldini olish maqsadida Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi direktorining 2024-yil 22-apreldagi 130-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan
2.		Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi direktorining 2024-yil 22-apreldagi 130-sonli xati inobatga olinsin.
3.	3. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Adilov), Denovbolo, Qavzaxona, Matmon, Siyob, Mingchinor, Xazrati Bashir, Makrid, Duoba o‘rmon bo‘limlari (M.Muxtorov, A.Xoliqov, S.Saburov, M.Raxmatov, U.Safarov, Sh.Davronov, I.Safarov,I.Ahmadov), Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaligi (J.Holiqov) Matmon, Jovuz o‘rmon bo‘limlari, (A.Turdiyev, R.Buriyev), Geologik qo‘riqxona (), “Obikanda” MFY (S.Axmedov), “Kuxsor” MFY (S.Norimov), “Qaynar” MFY (SH.Murodov), Bashir MFY (B.Safarov), “Makrid”	4. Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari (Sh.Adilov, J.Xoliqov), geologiya Milliy tabiat bog‘i (N.Abdiyev), Obikanda, Ko‘hsor, Qaynar, Bashir, Makrid mahallalari (R.Normurodov, S.Norimov, Sh.Murodov, T.Murodov, U.Jurayev) yong‘in xavfining oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ul etib belgilansin. Ularga:

	MFY (X.Xurramov), raislari yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan ma’sulligi belgilab qo‘yilsin.	tuman IIB YOXB (A.Boltayev), tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i v.v.b. (A.Hasanov), “O‘ztelekom” AK Kitob tumani filiali (Sh.Tursunov) bilan birgalikda davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda zudlik bilan odamlarni yong‘inni o‘chirishga jalb qilish, asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish;
4.	4. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi (SH.Adilov), Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaligi (J.Holiqov) va Geologik qo‘riqxona (), tuman IIB YOXB (A.Boltayev), tuman Tibbiyot birlashmasi (O.Turaboyev), “O‘ztelekom” AK Kitob tuman filiali (SH.Tursunov) Denovbolo, Qavzaxona, Matmon, Siyob, Mingchinor, Xazrati Bashir, Makrid o‘rmon bo‘limlari (M.Muxtorov, A.Xoliqov, S.Saburov, M.Rahmatov, U.Safarov, Sh.Davronov, I.Safarov,I.Ahmadov), Matmon, Jovuz o‘rmon bo‘limlari, (A.Turdiyev, R.Buriyev), “Obikanda” MFY (S.Axmedov), “Kuxsor” MFY (S.Norimov), “Qaynar” MFY (SH.Murodov), Bashir MFY (B.Safarov), “Makrid” MFY (X.Xurramov), raislari birgalikda Davlat o‘rmon fondi va Geologik qo‘riqxona yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar va oziq-ovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.	tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (S.Boynazarov) bilan birgalikda mazkur hududlar yaqinida yashayotgan aholi o‘rtasida yong‘inning oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;
5.	5. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi (SH.Adilov), Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaligi (J.Holiqov) va Geologik qo‘riqxona () tuman Tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi (S.Boynazarov), tumandagi “Obikanda” MFY (S.Axmedov) “Kuxsor” MFY (S.Norimov), “Qaynar” MFY (SH.Murodov), Bashir MFY (B.Safarov) “Makrid” MFY (X.Xurramov), , raislari o‘rmon xo‘jaligi yer fondi va qo‘riqxona yerlariga yaqin joyda yashayotgan aholiga o‘rmon xo‘jaligi yer fondi va Geologik qo‘riqxona yerlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda o‘rmon to‘g‘risidagi, Muxofaza etiladigan tabiiy xududlar to‘g‘risidagi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.	“O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjat rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

Maslahatchi **L. O‘roqova**

Kitob tuman hokimining
2024-yil 4-iyuldagi
206-4-62-Q/24-son qaroriga
4-ilova

XUQUQIY XULOSA

Kitob tuman hokimining "Davlat o'rmon fondi va gelogiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yilda davlat o'rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in kelib chiqishi hamda tabiatga va o'simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi "Respublika o'rmonlarini himoya qilish bo'yicha ayrim meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 506-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Kitob davlat o'rmon xo'jaligining xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunlari hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan qonun talablari doirasida ishlab chiqilgan.

Kitob tuman hokimining "Davlat o'rmon fondi va gelogiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to'liq javob beradi.

Kitob tuman hokimining "Davlat o'rmon fondi va gelogiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyixasi 2024-yil 6-iyun kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan (ID № 100163), muxokoma muddati 2024-yil 21-iyun kuni yakunlanganligi sababli tuman Adliya bo'limiga xuquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilmoqda.

Kitob tuman hokimligi bosh yuriskonsulti,
2- darajali adliya maslahatchisi Sh.Eshniyazov

9